# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I7Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 7 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 7-son (IyuL, 2024). -387 bet.

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduxamidov Islombek*
O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI ........ 10-18

*Фарманова Гульнара Комилевна*
ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ........ 19-24

*Индиаминова Шоира Амриддиновна*
РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ........ 25-29

*Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna*
XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH ........ 30-35

*Ismoilova Parvina*
TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) ........ 36-41

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*
O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI ........ 42-46

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*
ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ ........ 47-54

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*
VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH ........ 55-61

*Mamadaliyev Ulug'bek*
JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI ........ 62-69

*Jalilov Arslon Xoshimovich*
TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH ........ 70-75

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*
O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI ........ 76-82

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*
ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI ........ 83-87

*Norkulov Ubaydulla Umarovich*
MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI ........ 88-92

*Пулатов Шердор Нематёнович*
ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ ........ 93-105

*Yusupov Murodali Sunnatovich*
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO‘LLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI ........ 106-110

*Suleymanov Sarvar Sunatullayevich*
O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI ........ 111-116

*Shernazarov Ravshan Avazovich*
SIYOSIY E’TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI ........ 117-122

*Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich*
VATANPARVARLIKNI IJTIMOIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI ........ 123-126

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Matkarimova Salomat Ko‘ziyevna*
ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O‘ZIGA XOSLIK ........ 127-133

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI ........ 134-139

*Rahimova Maftuna*
LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA ........ 140-143

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*
O‘ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO‘PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR ........ 144-147

*Xursanov Nurislom Iskandarovich*
O‘ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI ........ 148-154

*Umarov Umidjon Akram o‘g‘li*
RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIIY TAHLILI ........ 155-159

*Облоқулова Шаҳло Асрор қизи*
ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ ........ 160-164

*Nazarova Lola Maqsadilla qizi*
KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ........ 165-170

*Umarxonova Dilafruz Murotjonovna*
“MARDLIK” VA “QO‘RQOQLIK” KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ........ 171-175

*Yunusova Ganjina Rustamovna*
NAZMDA YO‘L XRONOTOPINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI ........ 176-180

*Мусаев Файзулло Оманович*
АРАБ ДУНЁСИДА “МАСАЛ” ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ ........ 181-186

*Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G‘AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI ........ 187-192

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI ........ 193-196

*Masharipova Nargiza Otaxonovna*
TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO‘ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI ........ 197-201

*Икромова Нигина Ойбековна*
ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ ........ 202-207

*Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi*
NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 208-213

*Eshniyazova Maysara Beknazarovna*
“NAZMUL JAVOHIR” ASARIDA G’OYAVIY BADIIY POETIKA ........ 214-221

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Саидов Акром Акмалович*
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ........ 222-230

*Raimova Nargiza Doroyevna*
TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 231-237

*Умурзақов Жасурбек Қосимжанович*
КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 238-242

*Nurmamatova Noila Doniyorovna*
KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO‘RIB CHIQISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .... 243-248

*Mixammadjonov Jasurbek Jaxongir o‘g‘li*
FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG‘ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI ........ 249-260

*Адилбаев Бекбосын Абатбаевич*
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 261-267

*Турсунбоев Сардор Мурoджон ўғли*
ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 268-275

*Mukumov Bobur*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI ........ 276-282

*Nabiev Firuz Xamidovich*
INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA "MOSLASHUVCHANLIK" KONTSEPTSIYASINING O'RNI ........ 283-289

*Калимбетов Ерназар*
ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ........ 290-297

*Ibrohimov Azimjon Abdumo'min o'g'li*
KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI ........ 298-306

*Ходжаева Ширин*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ ........ 307-317

*Маматкулов Камолиддин Галабаевич*
ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 318-323

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*
HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 324-329

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI ........ 330-341

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*
OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ........ 342-346

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*
MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI ........ 347-357

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*
GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR ........ 358-363

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*
INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA ........ 364-369

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*
OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI ........ 370-375

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*
OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI ........ 376-381

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 7 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 30 June 2024
**Accepted:** 5 July 2024
**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

# LITERARY AND AESTHETIC FEATURES OF ROAD CHRONOTOPE IN POETRY

**Yunusova Ganjina Rustamovna**,
Bukhara state university, doctoral student

**Abstract.** The article examines the importance of the chronotope of the road in the representation of reality in the lyric poem, its influence on the lyrical plot, and the artistic-aesthetic poetics of the image of the road. The artistic and aesthetic functions of road chronotope in poetry are studied through the analysis of Abdulla Oripov's poems. The image of the road appears in poetry in various metaphorical and symbolic forms, and illuminates the image of the artistic space and time in the poem, describing the world that the poet himself understood and felt.

**Key words:** road chronotope, poetics, literary space and time, literary-aesthetic functions, symbolism, individual inner world.

# NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

**Yunusova Ganjina Rustamovna**
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant

**Annotatsiya.** Maqolada lirik she'rdagi voqelikni ifodalashda yo'l xronotopining ahamiyati, lirik syujetga ta'siri hamda yo'l timsolining badiiy-estetik poetikasi tadqiq qilinadi. Yo'l xronotopining nazmdagi badiiy-estetik funksiyalari Abdulla Oripov she'rlari tahlili orqali o'rganiladi. Yo'l timsoli she'riyatda turli xil metaforik va simbolik ko'rinishlarda namoyon bo'lib, shoirning o'zi anglagan va his qilgan olamni tasvirlashda badiiy makon va zamonning nazmdagi tasvirini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** yo'l xronotopi, poetika, badiiy makon va zamon, badiiy-estetik funksiyalar, simbolizm, individual ichki dunyo.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N28

**Kirish.** Adabiyotshunoslik nazariyasiga oid zamonaviy manbalarda lirik she'rdagi badiiy zamon va makon masalalari nisbatan kam tadqiq etilgan. Mavjudlari ham, xususan, voqeaband lirikaga nisbatan qo'llanilgan. Biroq lirik kechinma ulkan olam tasvirini aniq vaqt birliklari ichida, oniy lahzada kichik shaklda ifodalashi bilan epik yoki drammatik asarlardan ajralib turadi. [15, 145] Lirik xronotop epik xronotopdan keyin o'rganila boshlandi. Buning sababi, lirikada zamon va makon kategoriyalari lirik qahramonning ichki hisslariga teran singib ketadi, natijada ularni ajratib ko'rsatish qiyinlashadi. Lirik asardagi xronotop roman yoki qissalardagi hodisa singari o'tgan zamon ko'rinishida aniq ko'zga tashlanmaydi. Insonning ichki kechinmalar hisslaridagi o'zgaruvchanlik, standartlarga, normativlarga bo'ysunmaslik, ekspressivlik, emotsionallik kabi belgilarni o'zida mujassam etgan lirik xronotopni o'rganish ratsional fikrlshga asoslangan va konkret hodisaga qurilgan epik xronotopni o'rganishga nisbatan bir qancha murakkab hisoblanadi.[ 8, 145]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**. Adabiyotshunoslikda lirik zamon, badiiy zamon va badiiy makon, xronotop badiiy poetikasining nazariy muammolari bir necha yillar davomida oʻrganilib kelinmoqda. Xronotop masalalari dastlab M. Baxtinning ilmiy-nazariy ishlarida, keyinroq Rossiyada D. Lixachev, N. Shutaya, N. Gay, A. Nikolaev, B. Meilax, E. Meletinskiy, V. Xalizevlar tomonidan muhokama qilingan; Evropada X. Meyerhoff, A. James, A. Rodriguez, N. Bemong, J. Kuller, M. Atkins; Shimoliy Amerikada J. Blommaert, B. Koinen va boshqalar xronotopning kategorik va ilmiy-nazariy muammolarini tahlil qildilar. Hozirgi kunda kichik hajmli nazmga eʼtibor kuchayib borayotganini, soʻz ustalarining kichik makonda katta mazmun qamrovli asarlarni yoritishga undov quyidagi muammoning nazariy va amaliy tadqiqini kuchaytirish zaruriyatini koʻrsatadi. Ijodiy faoliyatning nazmga nisbatan kam yoritilganligi, ayrim olimlarning nazmdagi badiiy zamon va makon muammaolariga nisbatan kamroq eʼtirof etilishi yoki umuman eʼtibor qaratmasligiga olib kelmoqda. Holbuki, shoir ham inson sifatida olamni uch oʻlchamda koʻradi, anglaydi. Lirik sheʼrda ifodalanayotgan voqelik ham aniq makon va maʼlum vaqt doirasida yuz beradi. [15,142]

**Muhokama va natijalar**. Shoir badiiy faoliyati jarayonida oʻz ichki dunyosiga tayangan holda oʻzi his qilgan, koʻrgan muayyan makon va zamonda boʻlib, sheʼriyatda aks ettiriladigan voqelik shoir kechinmalarining oʻzidan oldingi va keyingi vaqt koʻrsatkichi bilan tasvirlanishi bizga maʼlum. “Lirik sheʼriyatda voqelik, kechinma, obraz, turli badiiy tasvir vosita va ifoda usullari badiiy vaqt va makon birligida yuzaga chiqadi. Natijada lirik sheʼr mazmunida salmoq ortadi”, degan xulosa berilgan [15, 143] Bundan koʻrinib turibdiki, nazmda badiiy makon va zamon tasviriy ifodalar va kechinmalarga oid barchasi yaxlitlik zamirida bogʻlanadi va lirik asarning mazmun mohiyatini shakllantiradi.

Yoʻl timsolining tarannumi nazmda benazir hisoblanadi. Xususan, nafaqat jahon sheʼriyatida, balki oʻzbek lirikasida ham **yoʻl** motivi koʻplab marotaba qalam ostiga olingan. Yoʻl xronotopi, yoʻl misolini yoritish kamolot choʻqqilari hazrat Navoiy ijodida yaqqol koʻzga tashlanadi. Hazratning birgina “Gʻaroyib-us Sigʻar “idagi “ fano yoʻli” “ din yoʻli”, “ porso yoʻli”, “adam yoʻli”,” xonaqoh yoʻli”, “hijron yoʻli”, “ falak yoʻli”, “ ishq yoʻli”, “ sarsar yoʻli”, “koʻngil yoʻli”, “ koʻz yoʻli”, ”rizo yoʻli”, “talab yoʻli”, “ haq yoʻli”, “ nazar yoʻli”, “ ovoraligʻ yoʻli”, “ xarobot yoʻli” kabi o ʻnlab birliklar mohiyatini ochishga, muallif badiiy niyatini yuzaga chiqarish qanchalik muhimligini anglashda xizmat qiladi .[7, 103]

Bundan shuni payqash mushkul emaski, yoʻl xronotopi hatto mumtoz adabiyotda ham muallifning badiiy-estetik qarashlarini yoritishda keng qoʻllanilgan. Soʻzimizning isboti sifatida hazrat Navoiyning ijodiga murojaat qilsak, “Hayrat-ul abror”ning “Basmala” qismida yoʻl xronotopi quyidagicha yoritilganligining guvohi boʻlamiz. [7, 102]

Yoʻqki erur maxzani vahdatda **yoʻl,**
**Yoʻlu** ne **yo ʻl**, asru yaqin **yoʻldir** ul.
Lekin erur ham qatiqu ham maxuf
Uylaki ojizdirur andan vuquf.

Vahdat xazinasi tomon boshlovchi yoʻl shunday yoʻlki, yoʻl boʻlganda ham eng yaqinidir, ammo eng mashaqqatli, eng xavfli sanalmish bu yoʻlni bosib oʻtish uchun vaziyatdan xabardor boʻlishning oʻzi yetarli hisoblanmaydi. Keyingi misralarda tavsif etilgan ahli qabul va ahli raʼd toifalarinoing bu yoʻldagi barcha xatarlari-yu, sinovlari batafsil qalam ostiga olinadi. Bobdan anglashiladiki, muallif tasvirlayotgan bu uzun, xatarli, hammaning taqdir safarida bosib oʻtish

majbur boʻlgan yoʻl- sinov yoʻldir, mohiyatan esa najot va saodat sari yoʻnaltirilgan Islom yoʻlidir.

Zamonaviy adabiyotga qaytadigan boʻlsak, yoʻl xronotopi va timsoli yordamida yaratilgan badiiy kashfiyotlar anchagina desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Jumladan atoqli shoir Abdulla Oripov nazmda yoʻl obrazi oʻzining kamolotini topishida katta hissa qoʻshgan ijodkorlardandir. Soʻz koshifi Abdulla Oripovning "Yoʻlak", "Bulut", "Bu yoʻllar", "Hidoyat yoʻli", "Bir yoʻl chekkasida yotibman nolon" "Uchinchi yoʻl", "Jannatga yoʻl" " Yoʻldadir, yetgay borib", "Haqiqat yoʻllarida" kabi oʻnlab asarlarida yoʻl xronotopining badiiy-estetik talqinini koʻrishimiz mumkin.

Xususan, "Haqiqat yoʻli" she'rining yozilish sanalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asar ostida 1969-2000 sanasi qoʻyilgan, bundan ma'lum bo ʻladiki, shoir oʻz umrining 31 yilini, ijodining katta qismini haqiqat yoʻli deb atalmish sinovlarga toʻla mashaqqatli yoʻl mavzusi mushohadasi ustida oʻtkazgan. "Haqiqat yoʻli " she'rida botil yoʻli, haq va haqsizlik yoʻli, bunyodkorlik va vayronkorlik yoʻllari, savob va gunoh yoʻllarining mohiyat jihatidan kesishganligiga guvoh boʻlamiz.

Lirikada yoʻl timsolining turli va rang- barang ma'nolarda voqealanishini biz ustoz shoir A. Oripov ijodi orqali tahlil qilamiz. Yoʻl xronotopi asosan **umr yoʻli, qismat yoʻli** ma'nolarida ham lirikada, ham eposda voqealanishi bizga ma'lumdir.

Qutlugʻ bir sahroda ko ʻz ochdi buloq,
**Yoʻl** soldi, daryolar sari adashib.
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq,
Togʻu- toshlar aro yaqin **yoʻl** ochib.
Odamlar tegmangiz, mayli toshsin, u
Mayliga togʻni ham koʻrsin, **yoʻlida**
Qoʻying oʻz **yoʻlini** oʻzi ochsin u,
Zavqlansin u ham kurash soʻngida. ("Buloq")

Mazkur kichik hajmli she'rda soʻz ustasi yoʻl toposi orqali xrononi ya'ni, badiiy makon va zamonni dohiyona biriktirishga muvaffaq boʻlgan. Bu she'rda birgina yoʻl soʻzi bir necha ma'nolarni ifodalab kelmoqda.

**Mayliga togʻni ham koʻrsin, yoʻlida**- quyidagi satrda yoʻlida – umri davomida, qismatida kabi voqelanib, majoziy ma'noda bulut oʻz qismatini, yoʻlini tanlab, hayoti davomida bu yoʻldagi past- balandliklarni, mashaqqat va shavqni oʻz tajribasida totib koʻrishligi tavsiya etilmoqda. Yuqoridagi she'rda, shoir qalbida kechayotgan ichki kechinmalarni oʻziga qadrdon boʻlgan hissiyotlarni oʻtmish va kelajakdagi timsollar asnosida yagona obraz atrofida markazlashtiryapti. Oʻziga xos tushunchalarni yoʻl obrazi atrofida toʻplayapti, shu bilan birgalikda lirik asarda paydo boʻlgan tasavvur realligini oshiryapti. Yo ʻl obrazi makon jihatidan keng qamrovli tushuncha bo ʻlsada, quyidagi satrlarda tarqoq obraz integratsiya asosida uzviy birlikni tashkil etyapti.

Qutlugʻ bir sahroda ko ʻz ochdi buloq,
**Yoʻl soldi**, daryolar sari adashib.

Ushbu satrlarda "yoʻl soldi" birikmasi oʻzining qismatidagi strategickharakatini boshladi, ya'ni oʻz tanlovini amalga oshirish uchun harakat boshladi anglamida kelmoqda.

Sen-chi, yo ʻlovchiga qilma xarxasha,
Ochiq chehra bilan qoʻlingni silkit.

Uni talar yoʻlida baribir pashsha,
Baribir tashlanar har xil daydi it. ("Yoʻlovchi")

Quyidagi baytlarda esa yoʻlovchi- insonning hayot yoʻli mashaqqatlari mohirona tasvirlangan. Yoʻlovchi bu hayotga kelar ekan, umr yoʻlidagi pashsha va daydi itlar hamslasiga tayyor turishi, bu yoʻldan sogʻ-omon chiqish chora- yoʻllari majoziy maʼnoda qalam ostiga olingan.

Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va oʻktam,
Biz-chi, eh…baʼzi bir koʻzi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz **katta yoʻlda** ham. ("Dorboz")

Quyidagi satrlarda esa katta yoʻl – yaʼni umr yoʻlimiz dorboz yoʻli bilan solishtirilgan holda tasvirlangan. Dorboz yoʻli naqadar mushkul boʻlmasin toʻgʻriga qarab yoʻl olgan hamda u shu qiyinchiliklarni yengib oʻtib, dor yoʻlidan epchil qadamlar ila koʻzi yopiq holatda mashaqqatlariga qaramasadan yoʻlni bosib oʻtadi, ammo odamzot oʻz hayot yoʻlida baʼzan mushkulotlarga dosh bera olmay, koʻzi ochiq boʻlsada, qingʻir-qiyshiq koʻshalarga nazar soladi, qoqiladi, adashadi. Katta yoʻl obrazi nafaqat lirik adabiyotlarda balki nasriy asarlarda ham koʻp uchrab majoziy maʼnoda umr yoʻli, taqdir yoʻlini tasvirlashda xizmat qiladi.

Izlanishlarimiz natijasida yoʻl xronotopi oʻzbek nazmida asosan **maqsad, maslak, dunyoqarash** kabi gʻoyalarni tubdan yoritishiga guvoh boʻldik.

Turkiy dunyomizda tengsiz alloma,
**Adolat yo ʻlida** kurashchi, botir.
Garchi qoʻlda qalam, boshda amoma,
Sizni qurshab oʻtdi faqat xavotir ("Sogʻuniy")

Xulosa qilib aytganda yoʻl soʻzi serqirrali boʻlib, nazmda makon va zamon kesishmasini turli xil yoʻnaltirishi mumkin. Gohida oʻquvchi hayot yoʻlidagi voqealar bilan toʻqnash kelsa, gohida maslak yoʻli, hidoyat yoʻli, tariqat yoʻli, mashaqqat yoʻli, adolat yoʻli, xiyonat yoʻli, ishq yoʻli kabi makonlardan tasavvur dunyosi orqali safar qiladi. Shu bilan birga yoʻl xronotopi lirik asarning badiiy arxitektonikasiga ham taʼsir qilib syujetni yoʻnaltiradi.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Вопросы литературы и эстетики, 1975, стр.399
2. Бахтин М. Эпос и роман (О методологии исследования романа) (ссылка-перевод: Узок Журакулов) В кн. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Вопросы литературы и эстетики, 1975, стр. 454-455
3. Меркулова И.И. ХРОНОТОП ДОРОГИ В РУССКОЙ ПРОЗЕ 1830-1840-Х ГОДОВ. - Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Саранск 2007, стр.6-7.
4. Темирбулат А. Б. Категории хронотопа и темпорального ритма литературе. Монография. -Казахстан, Алматы, 2009. – стр.- 499.
5. Хамроева, Ш. (2023). ПЕРЕВОД НАЦИОНАЛЬНЫХ КРАСОЧНЫХ СЛОВ (РЕАЛИЙ) (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ПЕРЕВОДА РОМАНА ОЙБЕКА «НАВОИЙ»). Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/8). https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N37

6. Юнусова, Ганжина. "ХРОНОТОП ДОРОГИ В РОМАНЕ ДЖОНА СТЕЙНБЕКА «ГРОЗДЬЯ ГНЕВА»." Innovative Development in Educational Activities 1.3 (2022): 44-48.
7. Avaznazarov O. Yoʻl obrazi tadqiqiga doir baʼzi bir mulohazalar. Abdulla Oripov fenomeni va Oʻzbek sheʼriyati taraqqiyoti-2021.05.21- bb-102-104 AVAZNAZAROV, O. (2021). Yo'l obrazi tadqiqiga doir ba'zi mulohazalar.
8. Nurillayevna S.J., Zinnatdinova G.I., "Lirik va epik xronotopning oʻziga xos xususiyatlari". Tafakkur ziyosi-2021-4.BB-146-149
9. Nasrulloyevna S. S. THE DEVELOPMENT OF CULTURAL TIES THROUGH THE GREAT SILK ROAD //Archive of Conferences. – 2021. – С. 45-47.
10. Rustamovna, Yunusova Ganjina. "THE ROLE OF THE ROAD CHRONOTOPE ON THE PLOT AND COMPOSITION OF THE LITERARY WORK." International Journal Of Literature And Languages 3.04 (2023): 57-62.
11. Rustamovna, Yunusova Ganjina. "THE POETIC FEATURES OF THE CHRONOTOPE PHENOMENON." American Journal of Philological Sciences 3.10 (2023): 77-84.
12. Saidjanovna U. D., Rustamovna Y. G. The analyses of chronotope of the road in John Steinbeck's novel "The grapes of wrath" International Journal of Research and Development (IJRD). – 2022. – Т. 7. – №. 9. – С. 46-48 http://www.eprajournals.net/index.php/IJRD/article/view/877
13. Yunusova Ganjina Rustamovna. (2022, октябрь 2). AMERIKA ROMANLARIDA YO'L XRONOTOPINING BADIIY XUSUSIYATLARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, Boston, USA. https://doi.org/10.5281/zenodo.7135025
14. Yunusova Ganjina Rustamovna. (2024). A literary view to the road chronotope in modern American poetry. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 31, 31–34. Retrieved from https://periodica.org/index.php/journal/article/view/812
15. Yoʻlchiyev Q.V. Lirik janr haqida baʼzi mulohazalar. FarDU ilmiy xabrlar-2022.- №.2.-BB. 142-147

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).